

**Hamidulla Dadaboyev**

(Toshkent, O'zbekiston)

[dadaboyev@mail.ru](mailto:dadaboyev@mail.ru)

## Ogahiy tarixiy asarlari soʻz boyligida oʻzlashma qatlamning oʻrni

### Abstrakt

Mumtoz oʻzbek adabiyotining yirik namoyondasi Ogahiy tomonidan 1825–1874-yillarda Xiva xonlari tarixiga bagʻishlab bitilgan “Riyoʻz ud-davla”, “Zubdat ut-tavorix”, “Jome ul-voqeoti sultoniyy”, “Gulshani davlat” va “Shohid ul-iqbol” asarlarida xonlik hududida yashagan oʻzbek, turkman, qozoq, qoraqalpoq millatlarining ijtimoiy-maishiy turmush tarzi, xonlikning Buxoro amirligi, Qoʻqon xonligi, Eron, Hindiston, Afgʻoniston, Rossiya davlatlari bilan oʻrnatgan turfa munosabatlari, oʻzaro toʻqnashuvlar, savdo-sotiq aloqalari, norozilik qoʻzgʻolonlari, xalqlarning mentaliteti, urf-odatlarini keng yoritilishi qatori, davr oʻzbek adabiy tilining leksik boyligi, sintaktik qurilishi oʻz ifodasini topgan. Ogahiy asarlari soʻz boyligida ijtimoiy-siyosiy, harbiy, iqtisodiy, maʼnaviy, diniy, ilmiy-maʼrifiy va boshqa terminlar sistemasi yaqqol koʻzga tashlanadi. Ushbu terminologik tizimni shakllantirishda asl oʻzbek(turk)cha qatlam kabi arab, fors-tojik, moʻgʻul, xitoy va qisman, rus tilidan kirib kelgan istilohlar muhim rol oʻynagan. Mazkur maqolada Ogahiyning Xiva xonlari tarixiga doir asarlarida qayd etilgan oʻzlashma qatlam tarkibida juda qadimdan turkiy (oʻzbek) tilida faol ishlatilgan istilohlarning fonetik va semantik qurilishiga diqqat qaratildi, soha terminologiyasi tizimidagi muayyan tilning oʻrni, maqeyini belgilashda lingvistik va ekstralingvistik omillar hisobga olindi.

**Kalit soʻzlar:** *Xiva xonligi, soʻz oʻzlashtirish, ekstralingvistik omil, terminologik tizim, xitoycha oʻzlashmalar, qadimgi turkiy til, leksik tarkib, moʻgʻulcha oʻzlashmalar, oʻzbek adabiy tili.*

**Muallif haqida:** *Hamidulla Dadaboyev* – filologiya fanlari doktori, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat oʻzbek tili va adabiyoti universiteti professori, Turon fanlar akademiyasi akademigi.

**Tavsiya etiladigan havola:** Dadaboyev, Hamidulla. 2020.

“Ogahiy tarixiy asarlari so'z boyligida o'zlashma qatlamning o'rni”. *Oltin bitiglar* 3: 38—53.

## Kirish

So'z o'zlashtirish har qanday til lug'at tarkibining shakllanishi va boyishida asosiy manbalardan biri hisoblanadi. So'z o'zlashtirish lingvistik va ekstralingvistik olimlar bilan bog'liq jarayon bo'lib, uning ta'sirini sezmagani bironta til dunyoda bo'lmasa kerak. Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, diniy-madaniy va boshqa munosabatlar natijasi o'laroq, bir tildan ikkinchi tilga tovushlar, so'zlar, terminlar o'zlashadi. Ayni shunday vaziyat, holat qardosh turkiy tillar, jumladan, o'zbek adabiy tili tarixiy taraqqiyoti bosqichlarida ham yaqqol namoyon bo'lgan.

Ma'lumki, qardosh turkiy xalqlar moziyda turkiy bo'lmagan xalqlar, mamlakatlar bilan yaqindan aloqaga kirgan, savdo-sotiq, diplomatik, diniy-madaniy, siyosiy, ijtimoiy munosabatlarni yo'lga qo'ygan. Bunday munosabatlar bois turkiy tillar fonetikasi, leksikasi, grammatikasida noturkiy tillarga xos elementlar paydo bo'lgan [Мысаев 1984, 120].

Turkologiyada o'zlashmalar haqidagi dastlabki nazariy qarashlar qiyosiy-tarixiy tilshunoslik metodi hamda turkiy-shunoslik fanining asoschisi Mahmud Koshg'ariy tomonidan 1074-1076-yillarda tuzilgan “Devonu lug'otit turk”da o'z aksini topgan.

Qomusiy xarakterdagi lug'at muallifi turkiy tildagi u yoki bu leksemaning qaysi tilga xosligi yoxud uni arab va forstillari materiallari bilan chog'ishtirish asosida kelib chiqishi, ya'ni etimologiyasini belgilab beradi. Chunonchi, «din» ma'nosidagi *nom* terminining xitoy tilidan [Махмуд Кошғарий 1983, 127] kirib kelgani, «idish»ni anglatuchi кўз`ач//кўзäч istilohining arabcha (кузад)ga o'xshash, biroq *d* harfi *ch* ga almashgani [Махмуд Кошғарий 1960, 341], «kalit, qulf kaliti» ma'nosidagi *kirit* so'zining arabcha *iqolid* so'ziga yaqinligi, bunda arabcha so'zdagi *q* harfi *g* ga, *l* harfi *r* ga, *d* harfi *t* ga almashgani, alifning esa tushirilgani [Махмуд Кошғарий 1960, 339], «dona» ma'nosidagi *tana* leksemasining forsiy tildan (*dana*) olingani, turkiy til talaffuziga moslashtirilib, turkiylashtirilgani [Махмуд Кошғарий 1963, 151], «peshonasida oqi bor ot» ma'nosidagi *ug'ar at* birikmasi tarkibidagi *ug'ar* so'zining shaklan ham, mazmunan ham arab tiliga mosligi [Махмуд Кошғарий 1960, 87], “sizindi suv” ma'nosidagi тэринүк leksemasining arabcha shakli *tarinquq* ekanligi, *q* fonemasining *g* tovushiga almashtirilganini ta'kidlaydi [Махмуд

Кошғарий 1961, 335]. *Turkmancha* belgisi bilan lugʻatdan oʻrin olgan va “oʻgʻirlash, talash” maʼnosida qoʻllangan qarʼyt leksemasi haqida mulohaza yuritgan lugʻatnavis ushbu soʻzni arabcha *gʻarat* oʻzlashmasidan olingan, deb gumon qilishini bayon etgan [Махмуд Кошғарий 1960, 338]. “Devonu lugʻotit turk”da qayd etilishicha, eski turkiy tilda “kuchli hukmdor, davlat boshligʻi” maʼnosi qadʼыр istilohi bilan anglashilgan. Xoqoniyaliklar xonni *qadir xan* birikmasi bilan sharaflashgan. Lugʻat muallifi qadʼыр soʻzining ayni maʼnosida arabchaga oʻxshashlik borligi, zero, *qodir* soʻzi arab tilida “kuchli, har ishni qila oluvchi” maʼnosini ifodalashiga urgʻu bergan [Махмуд Кошғарий 1960, 344] va hokazo.

Chet tillarga oid oʻzlashmalar turkiy tillar, jumladan, oʻzbek adabiy tili lugʻat tarkibi, xususan, terminologik tizimini boyitish va rivojlantirishda muhim oʻringa ega. Oʻzlashmalarning aksariyati siyosiy, maʼmuriy-davlat boshqaruvi, harbiy ish, ilm-fan va maishiy turmushga doir maʼnolarni ifodalashda faollik koʻrsatgan. Shu oʻrinda oʻzlashmalarning mavzuviy maydon nuqtayi nazaridan bir-biridan farqlanishini taʼkidlash lozim. Chunonchi, eski oʻzbek tili harbiy terminologiyasi, asosan, moʻgʻulcha oʻzlashmalar hisobiga kengayib borgan boʻlsa, maʼmuriy, siyosiy, tijoriy, ilmiy, diniy istilohlar aksariyat arabcha va forscha-tojikcha oʻzlashmalar hisobiga boyib borgan. Ayni paytda, xitoy, sugʻd, sanskrit tillaridan juda erta turkiy tillarga kirib kelgan baʼzi elementlar keyingi davr manbalari tilida ham qoʻllanishda davom etgan [Дадабаев 1991, 133-134].

Ogahiy tarixiy asarlari leksik tarkibi, jumladan, istilohlar tizimidan oʻrin olgan xitoycha oʻzlashmalarning soni oz boʻlsa-da, oʻz aksini topgan. Xitoy tilidan turkiy tillarga kirgan leksemalar haqida N.A.Baskakov [Баскаков 1987, 69-75], J.Kloson [Clauson 1972] va boshqa turkiyshunoslarning qarashlari maʼlumligini hisobga olib, biz mavjud taʼlimotlarga suyangan holda ularning Ogahiy asarlarida qanday maʼnoda ishlatilganiga toʻxtalish bilan cheklanishni maqsadga muvofiq topdik.

Ilk bor X asr qadimgi turkiy til obidasi hisoblanmish “Oltin yoruq” (Suvarnaprabhasa)da “ustoz, muallim” maʼnosida qayd etilgan *baxši* oʻzlashmasi [Древнетюркский словарь 1969, 82] *baxši* fonetik shaklda «Riyoʻz ud-davla» matnida «kotib, munshiy» maʼnosida ishlatilgan: *Yamutiya ulusiniŋ akábir va názimidin Davli baxši va Xálmuhammad vakil... taraqqiy tapib erdilär* [Ogahiy 1978, 43].

Eski oʻzbek adabiy tili manbalaridan “Gul va Navroʻz” matnida tahlil etilayotgan oʻzlashmaning *baxši* fonetik shaklda “mirza, kotib”

ma'nosini anglatganini kuzatish mumkin:

*Yana darxvástim bar yaxšilardīn,*

*Muyul subīnī bilgan baxšilardīn* [Фазылов 2006, 54v7].

Baytdagi *Muyul subīnī* izofali birikmasi ostida Chingizxon zamonida mo'g'ullar tomonidan o'zlashtirilgan turk (uyg'ur) yozuvi nazarda tutilgan. *Baxši* o'zlashmasi *bitig'či*, *mirza*, *kátib*, *dabir* istilohlaridan "turk (uyg'ur)" yozuvida hujjat tayyorlovchi, bituvchi" semasini ifodalashi bilan farqlangan. Amir Temur yurishlari aks etgan tarix asarlarida *baxši* istilohi "mirza, munshiy" ma'nosi qatori, "butparast ruhoniy, kohin" ma'nosida ham qo'llangan [Абдураззоқ Самарқандий 1969, 454]. Mazkur o'zlashmaning "turk (uyg'ur)" xatida hujjat bitivchi munshiy" ma'nosi Alisher Navoiyning "Hayrat ul-abror" dostonida qayd etilgan quyidagi baytda ham ifodasini topgan:

*Sartqa gārči bu barur yaxšilar,*

*Türk ilā ham yaxši barur baxšilar* [Навоий 1970, 133-23].

Dashti Qipchoq xonlari To'xtamish, Temur Qutlug', Qirim hukmdori Saodat Gireyxon yorliqlari, Shohrux mirzo devonxonasiga tegishli Hirotda 1422-yilda bitilgan hujjat, Boburning padari buzrukvori Umarshayx mirzoning 1469-yilga oid vasiqasi [Омонов 2016,17] singari rasmiy hujjatlar insho qilingan turk yozuvining XVI asrga kelib Movarounnahr va Xurosonda iste'moldan chiqishi oqibatida *baxši* "mirza, kotib" ma'nosini anglatishga xoslangan hamda *kátib*, *munšiy*, *mirza*, *dabir* istilohlari bilan sinonimik uyani shakllantirgan.

Dashtlab qadimgi turkiy Enasoy bitiklari tilida "davlat oldidagi harbiy xizmatlari evaziga yer-mulk soliqlaridan ozod qilingan, bir qator imtiyozlarga ega bo'lgan shaxs" ma'nosida qo'llangan tarxan (ko'pligi *tarqat*) termini biz tahlil qilayotgan Ogahiy asarlari matnida alohida mavjud bo'lmasa-da, lekin uning ishtirokida *-liy* affiksi bilan yasalgan va «soliqdan ozod qilinganlik» manosi ifodalovchi *tarxanliy* yasamasi «Riyo ud-davla»da qayd etiladi: *Ul xalqnīnī barčasiya tarxanliy yarliyin karāmat qildī* [Ораҳий 1978, 64]. Tarixning guvohlik berishicha, tarxonlar turk-mo'g'ul xalqlarining ijtimoiy-siyosiy turmush tarzida o'ziga xos imtiyozga ega bo'lgan tabaqa sanalib, Chingiziylar, Temuriylar va keyingi sulolalar davlatida alohida mavqega ega bo'lgan. O'gadey (O'ktoy) xon davrida shakllangan tarxonlik instituti muayyan saltanatda yuritiladigan siyosatga kuchli ta'sirini o'tkazgan. Tarxonlarga berilgan imtiyozlardan biri ular sodir etgan gunohlarning 9 marta qonun tomonidan kechirilishi sanalgan. Ogahiy asaridan yuqorida

misol tariqasida keltirilgan jumla tarxonlik institutining Xiva xonligida hamon o'z mavqeyini saqlab qolganligini ko'rsatadi.

Qadimgi turkiy O'rxun-Enasoy bitiklari matnida faol qo'llangan *qayan* termini Ogahiy asaridagi *xaqan* fonetik shaklda, umuman, mamlakat boshliqlarini ulug'lovchi oliy unvon manosi kasb etadi. Istilohning mazkur vazifani bajarishi ancha ilgariroq, ya'ni Temuriylar saltanatida voqelangan edi. Tarix Temuriy mirzolardan Shohruxning *xaqan-i said* unvoni bilan sharaflanganiga shohid [Абдураззоқ Самарқандий 1969, 325]. Alisher Navoiyning "Tarixi muluki Ajam" asarida *xaqan* istilohi turk hukmdoriga nisbatan qo'llangani bilan xarakterlidir: *Bu işdin xaqan-i türk váqif bolub, čerig tartīb Jayxundin ötüb, anin viláyatiya daxl qildi* [Навоий 1967, 219]. Istilohning ushbu ma'nosi XIX asrda ham o'z kuchini yo'qotmagan: *Xaqan-i gardunhašam šahriyār-i Iskandaršavkat... Abulgāzi Allāqulī Muhammad Bahādirxan* [Огаҳий 1978, 40].

*Qan* fonetik shaklida O'rxun-Enasoy bitiklari matnida ishlatilgan *xan* istilohi «hukmdor, davlat boshlig'i» manosi anglatgan. Temurbek tarixiga oid asarlarda *xan* termini faqat Chingiz naslidan bo'lgan shaxslarga nisbatan ishlatilgan: *Ul hazrat xan xizmatiya kelib, asru köp ināyat va šafqat kordi* [Шарафиддин Али Яздий 1997, 25]. Ushbu holatni XV-XVII asr eski o'zbek adabiy tili manbalarida ham kuzatish mumkin. Chunonchi, "Boburnoma"da *xan* istilohi faqat Chingiziylar hamda Shayboniylar xonadoni vakillarini ifodalashga yo'naltirilgan. Ogahiy asarlarida *xan* termini nafaqat chingiziylar sulolasi vakillariga, shuningdek, chingiziylarga mutlaqo aloqasi bo'lmagan saltanat boshliqlariga nisbatan ham qo'llanavergan. Mazkur hodisa XIII-XVII asrlarda differensial ma'noga ega bo'lgan *xan* istilohining umumiy ma'no kasb etganini ko'rsatadi.

"Bayroq, alam, belgi" ma'nosidagi tuy o'zlashmasi Ogahiy asarlari tilida "biron bir mansabdor, amaldorga ramz sifatida beriladigan nishona, belgi" ma'nosini bildirgan: *Avazxāja šayxulislamniñ tuyin alib, amir-i ravšan zamir Muhammad Saliḥ ataliqya marhamat qildilar* [Огаҳий 1980, 25]. Keltirilgan misol Xiva xonligida *šayxulislam* mansabi egasi hukmdor tomonidan shu mansabni tasdiqlovchi tug' bilan ta'minlangani, sarofroz etilganini bildiradi. Saltanatning alomati hisoblanmish tug' hamda nog'oraning Makka shariflaridan bo'lmish Sayyid Baraka tomonidan Temurbekka keltirilib peshkash qilinishi va u kishiga hukmdorlik mujdasining berilishi Sharafiddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma" asarida o'ta jonli tarzda tasvirlangan [Шарафиддин Али Яздий 1997, 54<sup>a</sup>].

Ogahiy asarlarida oldingi davr eski o'zbek adabiy

tili yodgorliklarida deyarli qo'llanmagan *čay* leksemasining "Gulshani davlat"da qayd etilishini ta'kidlash maqsadga muvofiq: *Muhammadniyáz devánbegi kečä tevägä qand va čay yúkläb, izdin kelib, ul janábniñ xizmatı šarafın taptı* [Огаҳий 1980, 179].

Eski o'zbek adabiy tilida, boshqa qardosh turkiy tillarda bo'lgani kabi, XIII asrdan e'tiboran leksik tarkibdan mustahkam o'rin egallashga erishgan mo'g'ulcha o'zlashmalar, asosan, harbiy terminologiya tarkibida, qisman, ijtimoiy-siyosiy terminlar tizimida faollik ko'rsatgan. Eski o'zbek adabiy tili harbiy leksikasida qo'llanishda bo'lgan mo'g'ulcha o'zlashmalar G.Dyorfer [Doerfer 1965-1972], S.Nominxanov [Номинханов 1973] hamda ushbu maqola muallifi tomonidan tadqiq etilgan [Дадабоев 1986, 32-37]. "Boburnoma" so'z boyligi tarkibidagi mo'g'ulcha o'zlashmalar haqida mulohaza yuritgan Z.Xolmanova nomlari qayd etilgan olimlar fikrlariga suyangan [Холманова 2007]. Ogahiy tarixiy asarlarining salmoqli qismi, yuqorida qayd etilganidek, Xiva xonlarining harbiy yurishlari, urush va janglari, qaror(lashkar)goh yoki qishloq(qishki qo'nimgoh)da joylashishi, ov ovlashi singari voqealarni tasvirlashga bag'ishlangan. Voqealar bayonida Ogahiy harbiy ishga oid ko'pdan-ko'p istilohlarni qo'llagan. Harbiy terminlar tarkibi asl o'zbek(turk)cha, qisman, forscha-tojikcha, arabcha va ulkan miqdordagi mo'g'ulcha leksik birliklardan tashkil topgan. Harbiy terminlar tarkibidagi mo'g'ulcha o'zlashmalar muallifining avvalgi ishlari va monografiyasida chuqur tahlil etilgani bois mazkur maqolada faqat ba'zi ijtimoiy-siyosiy terminlar tizimida ishlatilgan mo'g'ulcha o'zlashmalarga diqqatni qaratish bilan cheklanilgan. Shu o'rinda tahlilga tortilgan mo'g'ulcha o'zlashmalarning ma'muriy-harbiy sohadagi ma'no (tushuncha)larni ifodalashga xizmat qilganini ta'kidlash lozim bo'ladi. Kezi kelganda tarixiy obidalar matnida *yasavul* (turkcha-mo'g'ulcha), *daruya* kabi leksik birliklarning ham harbiy, ham ijtimoiy-siyosiy istilohlar tizimida qo'llanganini e'tirof etish maqsadga molik [Баскаков 1989, 63-71].

XIII asrdan boshlab harbiy harakatlar chog'ida, ayniqsa, g'anim tomonning mustahkam mudofaaga ega istehkomlarini qo'lga kiritish vaqtida mahalliy asirlardan tirik qalqon sifatida foydalanish harbiy taktikasining mo'g'ullar tomonidan keng istifoda etilgani tarixdan yaxshi ma'lum. Bunday tirik qalqon mo'g'ulcha *hašar* o'zlashmasi bilan ifodalangan. Ogahiy davrida bu mo'g'ulcha istilohning semantik qurilishida ma'no siljish hodisasi yuz bergan va uning zaminida yasalgan *hašariy* termini qandaydir ish-yumushni amalga oshirishda yordam, ko'mak beruvchi, ya'ni hasharchilarga

nisbatan qo'llangan: *Atráf javánibdīn hašariy va kárguzár ustád-i širinkár va bannáy-i jaládatšiyárlarni jam' qālib* [Орахий 1978, 153]. Demak, bugungi o'zbek tilidagi *hashar* va *hasharchi* so'zlarining ma'lum va mashhur ma'nolari XIX asrda shakllangan, degan fikrni ilgari surish imkonini beradi.

Saltanat oldidagi ulkan xizmatlari evaziga muayyan shaxsga hukmdor tomonidan tortiq, inoyat qilinadigan ko'chmas yer-mulk *suyuryal* termini bilan yuritilgani yaxshi ma'lum. Chingiziylar, Temuriylar va xonliklar davrida bu institutning faoliyati o'ta qamrovli bo'lgan. Arkoni davlat, a'yon hazrat, nufuzli ruhoniylar, atoqli sarkardalar, hukmdor sulola vakillari suyurg'ol bilan sarafroz etilgan. Beriladigan (tortiq qilinadigan) suyurg'olning hajmi-kattakichligi suyurg'ol egasining mavqiyi, davlat oldidagi xizmati, obrusi bilan o'lchangan. 1413-1414-yilda Shohrux mirzo atoqli sarkarda va davlat arbobi Shohmalikbekka Xorazm viloyatini *darbasta suyurg'ol* sifatida bergan. Shohmalik bu mulkda osoyishta turmush tarzini ushlab turgan, qo'shni davlatlar, xususan, Dashti Qipchoq xonlarini itoatga keltirgan, madrasalar, xonaqohlar, masjidlar, rabotlar, bog'-u rog'lar, hovuzlardan iborat ko'pdan-ko'p qurilishlar olib borgan [Абдураззоқ Самарқандий 2008, 477-478; Дадабоев 2018, 237].

Ogahiy asarlarida ushbu o'zlashma faolligi bilan diqqatni tortadi. Matnlarda *suyuryal* termini nafaqat in'om qilingan yer-mulk, hudud, viloyat, tuman, mavze, balki jangda mardlik ko'rsatgan askarlar-u qahramonlarga sovg'a sifatida beriladigan qo'y va otlarni ham anglatgan: *Saruq xalqīnīn piškaš yosunida keltirgān bišumār qoylarin laškar-i zafaršiyārya va yaxši atlardīn šuj'aáy-i nāmdárya baxšīš va suyuryal qilib...* [Орахий 1978, 50].

Temuriylar, Shayboniylar davrida qo'rg'on va qal'a hokimlari, ya'ni komendantlari mo'g'ulcha *daruya* o'zlashmasi yordamida ifodalangan. Ilk bor XII-XIII asrda turk(uyg'ur) yozuvida bitilgan turkiy manbalar matnida qo'llangan mazkur o'zlashma [Древнетюркский словарь 1969, 159] Temurbek qurgan saltanatda mavjud harbiy-ma'muriy mansab va lavozimlar ierarxiyasidan mustahkam o'rin olgan. Istilohning zikr etilgan ma'nosi Ogahiy tarixiy asarlarida ham o'z aksini topgan: Qultān *daruya qal'a zabtiya mutasaddi bolub, Qonyiratda qaldi* [Орахий 1978, 201].

Temuriylar davrida askarlarning biror joyga tushib, atrofini xandaq, aravalar yoki chetanlar bilan ihota qilishi mo'g'ulcha *kūrān* istilohi bilan anglashilgan. XV-XVII asr eski o'zbek adabiy tilida ushbu istiloh "guruh, to'da; qo'shin" ma'nosida ham ishlatilgan: *Jamuxani muxálifat qilib, bayxut va inrás qavmī on ūč kūrān jam' bolub,*

*Čingizxan birlä uruṣub, šikast bolyanı* [Таварихи гузида 1967, 42b-2]. Oʻzlashmaning “toʻsiq, gʻov, ihota” maʼnosi Ogahiy asarlarida ham saqlanib qolgan [Орахий 1980, 174]. Ayni chogʻda, ushbu oʻzlashma “urugʻ, qabila, guruh” maʼnosini ifodalash uchun ham yoʻnaltirilgan: *Muhammadkarim divánniḡ hamráhliyi bilä ularniḡ maktubin alib, yamut kūrāni jānibiya ázim boldılar* [Орахий 1980, 163].

Ogahiyning Xiva xonlari tarixiga bagʻishlangan asarlari tilida qoʻllangan moʻgʻulcha oʻzlashmalardan yana biri Chingizxonning ikkinchi oʻgʻli, 1224-yili oliy farmonga binoan Movarounnahrni idora qilish uchun tayinlangan *Chigʻatoy* (1241-yilda Qoraqurumda vafot etgan) antroponimi bilan bogʻlik leksik birliklardir. Maʼlumki, Chigʻatoyxonga boshqarish maqsadida otasi tomonidan berilgan Movarounnahr *Čiyatay* ulusī, uning aholisi *čiyatay xalqī*: Yana türk ulusī, bataxisis, *čiyatay xalqī* ara šayiʻ avzīndurkim, alar surudlarīn ul vazn bilä yasab, majlisda ayturlar [Навоий 1967, 479] yoxud *čiyatay eli* birikmasi bilan yuritilgan:

*Čiyatay eli meni őzbek demäsün,*

*Bihuda fikr qilib yam yemäsün*

[Муҳаммад Солиҳ 1961, 121].

Ogahiy asarlarida ham qayd etilgan *čiyatay xalqī* birikmasi yuqoridagi maʼnoni ifodalashda davom etgan: *Búnāh va oygruq ehtimālī čiyatay xalqīniḡ izzatpiyrasi Muhammadyaʻqub aqaya taʻin tapdı* [Орахий 1978, 47]. “Gulshani davlat” matnida *čiyatay* leksemasi etnonim, yaʼni urugʻ maʼnosida oʻz ifodasini topgan: *Darhāl sipāh-i nusratīštīmāl surʻat-u istiʻjāl bilä čiyatay sarī ilyar qıldılar* [Орахий 1980, 133].

Sir emaski, arab tilining turkiy tillarga kuchli taʼsiri XII asrdan voqelangan. Oldingi asrlarga oid eski turkiy til obidaları, xususan, Yusuf Xos Hojibning «Qutadgʻu bilig», Ahmad Yugnakiyning «Hibat ul-haqoyiq» asarida arabcha oʻzlashmalar sezilarli miqdorni tashkil etmagan. Lekin XIV asrga kelib, arabcha oʻzlashmalarning turkiy manbalar tilidagi soni salmoqli boʻlib, ijtimoiy-siyosiy, diniy, ilmiy, maʼrifiy sohaga oid maʼno-mazmunini ifodalashda faollik qilgan.

Taʼkidlash joizki, Ogahiy tarixiy asarlaridagi ijtimoiy-siyosiy terminlar tizimida arabcha oʻzlashmalar miqdor jihatdan koʻp boʻlib, ularning har biriga alohida munosabat bildirishning imkoni yoʻqligini hisobga olib, ayrimlarigagina diqqat qaratildi. Arabcha oʻzlashmalar ijtimoiy-siyosiy terminlar mavzuiy guruhlarining deyarli barchasida ishtirok etadi.

“Saltanat, davlat” maʼnosini anglatuvchi *mamlakat* va uning *mamālik* koʻplik shakli Xiva xonligida faol ishlatilgan. Shu

o'rinda, Ogahiy asarlarida har ikki leksik birlikning kichik viloyat, tumanlarga nisbatan ham qo'llanganini qayd etish lozim. "Davlat, hukumat; podshohlik, hukmronlik" mavhum ma'nosi shuningdek, *saltanat* istilohi bilan ham anglashilgan: *Hazrat-i xidev-i kámgar mazkur bolyan safardin murájaat qilib, mustaqarr-i saltanatda áram tutyandin soñ vuqu'ya yetdi* [Орахий 1980, 60]. Tahlil etilayotgan ma'no shuningdek, *vilayat, ólkä, bilád, davlat, mulk* istilohlari bilan ham anglashilgan. *Dáru mulk* izofasi ko'tarinkilik, emotsional-ekspressivlik, badiiylik belgisi bilan boshqa leksemalardan farqlangan. *Qal'a* (ko'pligi: *qilá'*), *hisár* istilohlari «qo'rg'on, mudofaa istehkomi» ma'nosini ifodalashda davom etgan. *Hisár* o'zlashmasi "tog'li hududdagi mudofaa istehkomi, qo'rg'on" semasi bilan xarakterlangan.

Hududiy bo'linishga bevosita aloqador *mavze, marhala* "yo'l ustida tushib o'tiladigan joy"; *atráf, javánib* "taraflar, atroflar, yoqlar", *manázil, manzil* "o'rin, joy" singari istilohlarga Ogahiy asarlarida keng o'rin berilgan.

"Turli guruh, urug', aymoq, birlashma" ma'nosini ifodalash *taváyif*, uning birlik shakli *táyifa* hamda *jamáa, tabáqat, xayl* leksemalari zimmasida bo'lgan. Xonlikda mavjud mansab, rutba, lavozimlarni anglatishda ham arabcha o'zlashmalarning ulushi salmoqli [Баскаков 1989, 63-71]. Chunonchi, *martaba, mansab, manásib, rutba* leksemalari xonligidagi mansablar iyerarxiasini ifodalashda xizmat qilgan: *Čerig soñidin yúrmäk účün alarya qaravulluq rutbası taxis tutdi* [Орахий 1978, 62].

"Muayyan davlat yoki mamlakat aholisi" sememasini ifodalash, asosan, *xalq, fuqará, rayáyá, rayyat, haláyi, ahl* o'zlashmalari zimmasiga yuklatilgan. Tobe yurtlardan olinadigan soliq turlari *uśr, xiráj, zakát*, qilinadigan turli sovg'a-salomlar, tortiqlar esa *tuhfa//tuhfát, iná'm, hadya//hadáyá, ihsán* istilohlari bilan anglashilgan.

Ko'pdan-ko'p mavhum ma'nolarni ifodalashda *vazarát* "vazirlik", *itáat* "bo'ysunish", *inád* "bo'yin tovlash", *risálat* "elchilik", *muxálifat* "dushmanlik", *mufsid* "fasodchi", *mulázamat* "xizmatkor", *ábá, ajdád* "ota-bobolar, ajdodlar", *safarát* "tashrif, safar qilishlik" kabi o'zlashmalar o'ta qo'l kelgan.

Ma'muriy-boshqaruv apparatining katta-kichik mansabdorlari nomlarini anglatishda ham arabcha o'zlashmalarning o'rni sezilarli bo'lgan. Xususan, *hákim, hukmrán, sultán, sáhib ul-farmán, amir, váliy, vakil, akábir, vazir, murabbiy* "ustoz", *umará, mulázim, mahram* "ichki, xizmatchi", *ámil* "soliqchi", *qázi, naqib, sadr* "rais",

*mulázim* “xizmatchi”, *kubará* “ulugʻlar, mashhurlar”, amir ul-umará “amirlar amiri, beklar begi”, qásid “*chopar, elchi*”, *rasul* “elchi”, *qáyimmaqám* “taxt vorisi, merosxoʻr” kabi oʻzlashmalar shular jumlasiga kiradi.

Din va shariat namoyandalarini nomlashda ham arabcha oʻzlashmalarning oʻrni sezilarlidir. Jumladan, *šayx, šayxulislám, muf-tiy, mutavalliy, avliyá, maxzum//maxdum, sufiy, rais* kabi arabcha oʻzlashmalar shular qatoridan oʻrin olgan.

“Buyruq, farmon” maʼnosi *amr, hukm*, “kelishish, ahdlashish” maʼnosi *muwáfaqat*, “ikki tomonning bir-biriga ishonch bildirishi, samiy doʻstlik” *musádaqa*, “muqim joylashgan” tushunchasi *mutavattin, mutamakkin* oʻzlashmalari bilan ifodalangan. Keltirilgan ashyoviy materiallar kesimida Ogahiy tarixiy asarlarida qoʻllangan ijtimoiy-siyosiy terminlar tarkibida arabcha oʻzlashmalar miqdorining qay darajada ekanligi xususida xulosa chiqarish mumkin.

XI – XIX asrlar davomida oʻzbek adabiy tili nafaqat islom mafkurasi va arab tili hamda yozuvi, shuningdek, fors-tojik tilining kuchli taʼsiri ostida qoldi. Turkiy va forsiy xalqlararo azaliy, yaqin munosabatlar negizida turkiy tillar, alalxusus, oʻzbek tili leksik boyligida juda katta miqdordagi forscha-tojikcha oʻzlashmalar paydo boʻldi. Ayni chogʻda, oʻzbek tili leksik elementlari fors-tojik tiliga kirib bordi, uning lugʻat boyligini yanada kengaytirdi.

Turkiy tillardagi fors-tojik oʻzlashmalari H.Neʼmatov [Неъматов 1969], B. Sultonov [Султанов 1981, 14-19], L.Rustemov [Рустемов 1963], A.Memetov [Меметов 1975] singari turkologlarning tadqiqotlarida aks etgan. XI – XIV asr turkiy manbalar tilidagi ijtimoiy-siyosiy va sotsial-iqtisodiy terminologiya tarkibidagi forscha-tojikcha oʻzlashmalar ham maxsus oʻrganilgan [Дадабаев 1980, 143-148].

Shuni alohida taʼkidlash joizki, XI – XIV asrlarga doir turkiy manbalar tilida qoʻllangan fors-tojik tili leksik elementlari Markziy Osiyo, Sharqiy Turkiston, Volgaboʻyi turkiy tillari lugʻat tarkibidan mustahkam oʻrin olgan va keyingi davrlarda ham faol qoʻllanishda boʻlgan. Arabcha leksemalar singari forscha-tojikcha oʻzlashmalar ham Ogahiy davri oʻzbek mumtoz adabiyoti obdalari tilida son jihatdan ziyodligi bilan xarakterlanadi. Shu oʻrinda, arabcha hamda forscha-tojikcha oʻzlashmalarning eski oʻzbek adabiy tili soʻz yasash jarayonida faol ishtirok etgani, oʻzbekcha affikslar bilan birikib, katta miqdordagi qorishiq soʻz hamda istilohlar yasaganini eʼtirof etish kerak.

Tahlilga tortilayotgan ijtimoiy-siyosiy istilohlar tarkibida

forscha-tojikcha o'zlashmalarning o'zni, mavqeyi yaqqol ko'zga tashlanadi. Ular yuqorida zikr etilgan mavzuviy guruhlarining barchasida o'z ulushiga ega.

Ijtimoiy-siyosiy terminlar tarkibida mavjud forscha-tojikcha leksik elementlarni davr nuqtayi nazaridan tasnif qilish jarayonida, ularni ikki katta, ya'ni XI – XIV asr eski turkiy til hamda XV – XVI asr Alisher Navoiy va uning izdoshlari asarlarida qayd etilgan o'zlashmalar guruhiga taqsimlash mumkin bo'ladi. XI – XIV asr eski turkiy til obidalari, jumladan, Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig", Ahmad Yugnakiyning "Hibat ul-haqoyiq", Ahmad Yassaviyning "Hikmatlar"i tilida forscha-tojikcha elementlarning ulushi nisbatan past darajada bo'lsa-da, XIV asr manbalaridan Rabg'uziyning "Qisasi Rabg'uziy", Qutbning "Xusrav va Shirin", Sayfi Saroyining "Guliston bi-t turkiy", Xorazmiyning "Muhabbatnoma", Mahmud ibn as-Saroyining "Naxj ul-farodis" asarlarida forsiy o'zlashmalar sonining bir necha marta ko'paygani yaqqol namoyon bo'ladi. Bunda, tabiiy, ekstralingvistik omillar, xususan, fors mumtoz adabiyotining, forsiydan turkiyga qilingan tarjimalarning roli yetakchilik qilgan.

Ma'lumki, Ogahiy, fors-tojik tilida yozilgan 19 ta asarni o'zbek tiliga mohirona o'giran. Shubhasiz, ushbu mutarjimlik faoliyati uning asarlarida forscha-tojikcha o'zlashmalar (so'zlar, istilohlar, izofali birikmalar, gap qurilishi konstruksiyalari)ning qo'llanishida aks etgan, deyish mumkin. Ayniqsa, fors-tojik tiliga oid jimjimador, emotsional bo'yoqdor so'zlar ishtirokida uzundan-uzun jumlar tuzish Alisher Navoiy ijodidan meros bo'lib kelayotgan anana Ogahiy uchun begona emas edi. Zotan, Alisher Navoiyni o'zining ulug' salafi, ustози deb sanagan Ogahiy buyuk mutafakkirga ergashgan, uning yo'lini davom ettirgan.

XI – XIV asrlarga oid forscha-tojikcha o'zlashmalarning Ogahiy asarlaridagi ishtiroki sezilarli. Ular sirasiga pahlaván – "jasur, botir, pahlavon, polvon", pádšáh "hukmdor", šáh "hukmdor", sarbáz "askar", sarvar "boshliq, rahbar", sarhang "sarkarda", *sulhnáma* "tinchlik haqidagi bitim", *faryád* "dod, arz", *farmán* "buyruq, hukm", *xánadán* "sulola", *xánaqáh*, "mehmonxona", xaja-xoja "janob; xo'jayin", *xusrav* "shoh, podshoh", *šahriyár* "shoh, hukmdor", šáhána "shohlarnikidek, shohlarcha", *šahzáda* "hukmdor sulola vakili" kabi leksik birliklarni kiritish lozim.

XV – XIX asrlarda eski o'zbek adabiy tiliga o'zlashgan forscha-tojikcha elementlarning soni va sifati, albatta, oldingi asrlarga qaraganda farqlangan. Xususan, ijtimoiy-siyosiy terminlar tizimidagi qator tushuncha va ma'nolarni ifodalashda ularning o'zni sezilarli

bo'lgan. Ushbu jihat Ogahiy asarlari leksikasida ham o'z aksini topgan. Chunonchi, *sarupáy* "sarpo", *nikxáh* "yaxshi xohishli, niyatli", *xusravána* "podshohiy", *piškaš* "tortiq, sovg'a", *sarámad* "omadli, baxtli"; *saranjám* "tugallash", *námdár* "mashhur, atoqli", *túrktáz* "turklar hujumi, hamlasi" kabi leksemalar mavhum ma'nolarni ifodalashga xizmat qilgan bo'lsa, xonlikda mavjud mansab va lavozimlarni anglatishda quyidagi istilohlar faollikka o'rsatgan: *mihtar*, *sadar*, *sipahdár*, *kadxudá* "oqsoqol, boshliq"; *marzbán* "chegaradagi hudud hokimi"; *miráxur* "hukmdor otboqarlari boshlig'i"; *miráb* "xonlikda suv uchun mas'ul shaxs"; *dádxáh* "fuqarolarning arzini hukmdorga yetkazuvchi saroy amaldori" va h.k.

Ogahiy asarlarida o'zga o'zbek mumtoz adabiyoti namoyandalari tilida mavjud bo'lmagan, bo'lgan taqdirda ham, ma'nosi butunlay farqli forscha-tojikcha birliklar ham ishlatilgan. Xususan, *náma* "xat, maktub" leksemasi ishtirokida hosil qilingan *muhabbatnáma* "sevinch xati, maktubi" [Орахий 1976, 81], *tahniyatnáma* "tabrik nomasi, muborakbod maktubi" (Орахий 1978, 20), *musadáqatnáma* "sodiqlik haqidagi maktub" [Орахий 1978, 51], *i'tiqádnám* "ishonch maktubi, ishonchnoma"; *ma'zaratnáma* "uzrnoma, kechirim so'rash maktubi", *ixlásnáma* "muxlislik maktubi" [Орахий 2009, 247], *ináyatnáma* "sevinch va iltifot maktubi", *muvaláfatnáma* "do'stlik nomasi" [Орахий 2009, 50] kabi elchilikka tegishli istilohlar aynan Ogahiy tarixiy asarlari tilida o'ta faolligi bilan ajralib turadi.

Forscha-tojikcha o'zlashmalar tarkibida izofalarning haddan ziyodligi kishi diqqatini tortadi. Forsiy izofalarning turkiy tillarda shakllanishi ancha ilgarigi davrlarga borib taqalsa-da, ularning keng miqyosda ishlatilishi XV – XIX asrlarga to'g'ri keladi. Alisher Navoiy o'zining nazmiy va nasriy asarlari tilida forsiy izofadan turkiy izofali birikmalar singari keng foydalangani sir emas. Shunday holat Ogahiy tarixiy yodgorliklari matnida ham namoyon bo'ladi. Forsiy izofalarning ijtimoiy-siyosiy sohada ham muhim o'ringa ega bo'lganini qayd etgan holda muayyan ashyoviy materiallarni keltirish bilan kifoyalanamiz.

Ma'muriy-boshqaruv tizimiga doir tushunchalarni anglatuvchi forsiy izofalar sirasiga *dargáh-i álampánah* "hukmdor saroyi" [Орахий 1978, 19], *sáhibqirán-i jannatmakán* "hukmdor, xon", *xil'at-i xusravána* "shohona to'n, kiyim" [Орахий 1978, 20], *zubda-i dudmán* "sulola (xonadon) sarasi" [Орахий 1978, 21], *elčixana-i humáyun* "qutlug' elchixona" [Орахий 1978, 199], *hazrat-i a'lá* "a'lo hazratlari, xon, hukmdor" [Орахий 1980, 198], *arkán-i*

*davlat* “saltanatning ulug‘ kishilari, tayanchlari” [Орахий 1980, 194], *ástán-i áliýshán* “dovrug‘i ketgan saroy” [Орахий 1980, 62], *vazir-i a‘zam* “bosh vazir” [Орахий 2009, 63] kabilarni kiritish joiz.

Ogahiyning hayoti va faoliyati Turkistonning Chor Rossiyasi tomonidan bosib olishga qaratilgan siyosatning asta-sekin hayotga tatbiq etilishi paytiga to‘g‘ri kelgan. Tarixnavis ushbu jarayon bilan bog‘liq voqea-hodisalarni asarlarida ifodalash asnosida rus tiliga oid *guburnatur* “lashkarboshi”, orus “rus”, *Rusiya* “Rossiya” singari termin, etnonim, toponimlarni tilga olgan: *Ittifáqá, ul uðurda guburnatur, ya‘ni orus laskariniň sarkardasi Qazaqiya taváyifidín guruh-i anbuñni va Rusiya xaylidín ba‘zini Túrkistándín Činas qal‘asiniň tasxiriya buyurmıs erdi* [Орахий 2009, 62]. Shunday holat “Riyoz ud-davla” matnida ham aksini topgan. Ogahiy rus tiliga xos leksemalarni o‘zbek tili fonetikasi qonunlariga bo‘ysundirgan tarza ifodalagan: *Bu yil rajab ayiniň üçidä šamba kúni orus páytaxti Fetirburx pádšáhí impiratur Nikulay Pavlufičniň qoşyan elčisi Prukufiy Andriiç binni Nikiqursiniň hamráhliyi bilä kelib...* [Орахий 1978, 151].

Xullas, Ogahiy tarixiy asarlari so‘z boyligi o‘ta rang-barang va turfa bo‘lib, unda asl o‘zbek(turk)cha, arabcha, forsha-tojikcha, mo‘g‘ulcha, xitoycha, ruscha leksik birikmalar o‘rni bilan qo‘llangan. Eski o‘zbek tili ijtimoiy-siyosiy terminlar tizimi tarixiy-etimologik jihatdan nafaqat o‘z, balki aynan qayd etilgan tillarga xos istilohlar zaminida shakllangan va rivojlangan.

### Adabiyotlar

- Баскаков, Н.А. 1987. “К проблеме китайских заимствований в тюркских языках”. *Советская тюркология* 1: 69 – 75.
- Баскаков, Н.А. 1989. “Титулы и звания в социальной структуре бывшего Хивинского ханства”. *Советская тюркология* 1: 53 – 59.
- Дадабоев, Х. 1986. “Эски ўзбек тили обидаларида мўғулча сўзлар”. *Ўзбек тили ва адабиёти* 6: 30 – 35.
- Дадабаев, Х. 1991. *Общественно-политическая и социально-экономическая терминология в тюркоязычных письменных памятниках XI-XIV вв.* Ташкент: Ёзувчи.
- Дадабоев, Х. 2018. *Амир Темур даврдошлари (Мўъжаз энциклопедия)*. Тошкент: Navoiy universiteti.
- Doerfer, G. 1965 – 1972. *Türkische und mongolische Elemente im Neupersischen. Bd. I -IV.* Wiesbaden.
- Древнетюркский словарь*. 1969. Ленинград: Наука.
- Меметов, А. 1975. *Персидские заимствования в современном крымско-татарском языке*. Автореф. дисс. филол. наук. Ташкент.
- Мусаев, К. 1984. *Лексикология тюркских языков*. Москва: Наука.

- Навоий, Алишер. 1967. *Асарлар. Ўн беш томлик. Ўн тўртинчи том*. Тошкент: Ғафур Ғулом.
- Нигматов, Х. 1969. "Махмуд Кашгарский о взаимовлиянии тюркских и иранских языков". *Иранская филология: краткое изложение докладов научной конференции, посвященной 60-летию А.Н.Болдырева*. Москва.
- Номинханов, Ц. 1943. *О монгольских административно-политических и военных терминах XIII - XIV вв., сохранившихся в узбекском языке*. Автореф. дисс. канд. филол. наук. Москва.
- Огаҳий, Муҳаммад Ризо мироб Эрнийезбек ўғли. 1978. *Асарлар. V жилд*. Тошкент: Ғафур Ғулом.
- Огаҳий, Муҳаммад Ризо мироб Эрнийезбек ўғли. 1980. *Асарлар. VI жилд*. Тошкент: Ғафур Ғулом.
- Огаҳий, Муҳаммад Ризо Эрнийезбек ўғли. 2009. *Шоҳиду-л иқбол (Иқбол шоҳидлари)*. Нашрга тайёрловчи, сўзбоши ва изоҳлар муаллифи Нафас Шодмонов. Тошкент: Муҳаррир.
- Омонов, Қ.Ш. 2016. *Туркий расмий услубнинг юзага келиши ва такомилли (Илк ва Ўрта асрлар)*. Докторлик диссертацияси. Тошкент.
- Рустемов, Л. 1963. *Арабско-персидские заимствования в казахском языке*. Дисс. канд. филол. наук. Алма-Ата.
- Самарқандий, Абдураззоқ. 2008. *Матлаи саъдайн ва мажмаи баҳрайн. II жилд биринчи қисм 1405–1429 йиллар воқеалари*. Тошкент: Ўзбекистон.
- Солиҳ, Муҳаммад. 1961. *Шайбонийнома*. Нашрга тайёрловчи: Насрулло Даврон. Тошкент: Ўзбекистон ССР Фанлар академияси нашриёти.
- Таварихи гузида. *Нусрат-наме*. 1969. Исследование, критический текст, аннотированное оглавление и таблица сводных оглавлений к.ф.н. А.Акрамова. Ташкент.
- Холманова, З. 2007. *"Бобурнома" лексикаси*. Тошкент: Фан.
- Яздий, Шарафуддин Али. 1997. *Зафарнома*. Сўз боши, табдил, изоҳлар ва кўрсаткичлар муаллифлари: Ашраф Аҳмедов, Ҳайдарбек Бобобеков. Тошкент: Шарқ.
- Clauson, Sir Gerard. 1972. *An Etimological Dictionary ot pro-thirteenthcentury Turkish*. Oxford.

**Hamidulla Dadaboev**  
(Tashkent, Uzbekistan)  
dadaboyev@mail.ru

## The role of Loanwords in Vocabulary of Historical works by Ogakhi

### Abstract

In the works "Riyaz ud-davla", "Zubdat ut-tavorix", "Jome ul-waqeoti sultoni", "Gulshani davlat" and "Shahid ul-iqbol" written during 1825-1874 years by Ogakhi, a great representative of classical Uzbek literature, are dedicated to the history of Khiva khans in the social life of the Uzbek, Turkmen, Kazakh, Karakalpak peoples living in the territory of the khanate, the unique relations of the khanate with the Bukhara Emirate, Kokand Khanate, Iran, India, Afghanistan, Russia, conflicts, trade relations, protests, the mentality of the peoples, also it reflects the vocabulary and syntax of that period. We can easily identify socio-economical, military, economical, spiritual, religious, scientific and other terms in Ogakhi's works. The terms borrowed from Uzbek (Turkic), Arabic, Persian, Mongolian, Chinese, and some Russian terms played a great role in the development of that terminological system. The article discusses phonetic and semantic structure of the borrowed terms, that have been actively used in the Turkic (Uzbek) language since ancient times and appear in Ogakhi's works devoted to the history of Khiva khanate. We also paid attention to linguistic and extra linguistic factors in determining the influence of different languages to the terminology of this field.

**Key words:** *Khiva khanate, loanwords, extralinguistic factors, terminological system, Chinese loanwords, ancient Turkic language, lexical content, Mongolian loanwords, Uzbek literary language.*

**About the author:** *Hamidulla Dadaboev* – Doctor of Sciences in Philology, Professor of Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named After Alisher Navoi, Academician Academy of Sciences "Turon".

**Recommended citation:** Dadaboev, Hamidulla. 2020. "The role of Loanwords in Vocabulary of Historical works by Ogakhi". *Golden Scripts* 3: 38—53.

### References

Baskakov, N.A. 1987. "K probleme kitayskix zaimstvovaniy v tyurkskix yazikax". *Sovetskaya tyurkologiya* 1: 69 – 75.

- Baskakov, N.A. 1989. "Tituli i zvaniya v sotsialnoy strukture bivshego Xivinskogo xanstva". *Sovetskaya tyurkologiya* 1: 53 – 59.
- Dadaboev, H. 1986. "Eski oʻzbek tili obidalarida moʻgʻulcha soʻzlar". *Oʻzbek tili va adabiyoti* 6: 30 – 35.
- Dadabaev, X. 1991. *Obshestvenno-politicheskaya i sotsialno-ekonomicheskaya terminologiya v tyurkoyazichnix pismennix pamyatnikax XI-XIV vv.* Tashkent: Yozuvchi.
- Dadaboev, H. 2018. *Amir Temur davrdoshlari (Moʻjaz ensiklopediya)*. Toshkent: Navoiy universiteti.
- Doerfer, G. 1965 – 1972. *Türkische und mongolische Elemente im Neupersischen. Bd. I-IV.* Wiesbaden.
- Drevnetyurksiy slovar.* 1969. Leningrad: Nauka.
- Memetov, A. 1975. *Persidskie zaimstvovaniya v sovremennom krimsko-tatarskom yazike.* Avtoref. diss. filol. nauk. Tashkent.
- Musaev, K. 1984. *Leksikologiya tyurkskix yazikov.* Moskva: Nauka.
- Navoiy, Alisher. 1967. *Asarlar. Oʻn besh tomlik. Oʻn toʻrtinchi tom.* Toshkent: Gʻafur Gʻulom.
- Nigmatov, X. 1969. "Maxmud Kashgarskiy o vzaimovliyanii tyurkskix i iranskix yazikov". *Iranskaya filologiya: kratkoe izlozhenie dokladov nauchnoy konferensii, posvyashennoy 60-letiyu A.N.Boldireva.* Moskva.
- Nominxanov, s. 1943. *O mongolskix adminstrativno-politicheskix i voennix terminax XIII – XIV vv., soxranivshixsya v uzbekskom yazike.* Avtoref. diss. kand. filol. nauk. Moskva.
- Ogahiy, Muhammad Rizo mirob Erniyozbek oʻgʻli. 1978. *Asarlar. V jild.* Toshkent: Gʻafur Gʻulom.
- Ogahiy, Muhammad Rizo mirob Erniyozbek oʻgʻli. 1980. *Asarlar. VI jild.* Toshkent: Gʻafur Gʻulom.
- Ogahiy, Muhammad Rizo Erniyozbek oʻgʻli. 2009. *Shohidu-l iqbol (Iqbol shohidlari).* Nashrga tayyorlovchi, soʻzboshi va izohlar muallifi Nafas Shodmonov. Toshkent: Muharrir.
- Omonov, Q.Sh. 2016. *Turkiy rasmiy uslubning yuzaga kelishi va takomili (Ilk va Oʻrta asrlar).* Doktorlik dissertatsiyasi. Toshkent.
- Rustemov, L. 1963. *Arabsko-persidskie zaimstvovaniya v kazaxskom yazike.* Diss. kand. filol. nauk. Alma-Ata.
- Samarqandiy, Abdurazzoq. 2008. *Matlai saʼdayn va majmai bahrayn.* II jild birinchi qism 1405–1429 yillar voqealari. Toshkent: Oʻzbekiston.
- Solih, Muhammad. 1961. *Shayboniynoma.* Nashrga tayyorlovchi: Nasrullo Davron. Toshkent: Oʻzbekiston SSR Fanlar akademiyasi nashriyoti.
- Tavarixi guzida. Nusrat-name.* 1969. Issledovanie, kriticheskiy tekst, annotirovannoe oglyavlenie i tablitsa svodnix oglyavleniy k.f.n. A.Akramova. Tashkent.
- Xolmanova, Z. 2007. *"Boburnoma" leksikasi.* Toshkent: Fan.
- Yazdiy, Sharafuddin Ali. 1997. *Zafarnoma.* Soʻz boshi, tabdil, izohlar va koʻrsatkichlar mualliflari: Ashraf Ahmedov, Haydarbek Bobobekov. Toshkent: Sharq.
- Clauson, Sir Gerard. 1972. *An Etimological Dictionary ot pro-thirteenthcentury Turkish.* Oxford.